

Ushbu maqolada tarixiy asarlarni tarjima qilish jarayonida davrga xos til vositalarining funksional va badiiy ahamiyati tahlil qilib, tarjima jarayoni faqat matn mazmunini boshqa tilga ko‘chirish bilan cheklanmay, balki muallif tomonidan yaratilgan tarixiy muhit, madaniy kontekst hamda davr ruhini o‘quvchiga yetkazish vazifasini ham bajaradi. Tadqiqotda arxaik leksika, tarixiy terminlar va realiyalarning tarjimada qanday ifodalanishi hamda ularning badiiy va kommunikativ ta’siri o‘rganilib, tarixiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari tarixiy asarlar tarjimasida adekvatlik nafaqat semantik moslikni, balki stilistik va madaniy moslikni ham talab qilishini ko‘rsatadi. Kalit so‘zlar: tarixiy asarlar, tarjima, arxaik leksika, tarixiy terminlar, milliy kolorit, realiyalar, adekvat tarjima, badiiy qiymat. Аннотация. В данной статье анализируется функциональное и художественное значение языковых средств, характерных для того периода, в процессе перевода исторических произведений, отмечая, что процесс перевода не ограничивается переносом содержания текста на другой язык, но также служит для передачи читателю исторической среды, культурного контекста и духа эпохи, созданной автором. В исследовании рассматривается, как архаичная лексика, исторические термины и реалии выражаются в переводе, а также их художественно-коммуникативное воздействие, анализируются лингвистические и культурные трудности, возникающие в процессе перевода исторических текстов, и стратегии их преодоления. Результаты исследования 593

В seriya показывают, что адекватность перевода исторических произведений требует не только семантической совместимости, но и стилистически-культурной совместимости. Ключевые слова: исторические произведения, перевод, архаичная лексика, исторические термины, национальный колорит, реалии, адекватный перевод, художественная ценность. Abstract. This article analyzes the functional and artistic significance of period-specific language tools in the process of translating historical works, noting that the translation process is not limited to transferring the content of the text into another language, but also serves to convey to the reader the historical environment, cultural context, and spirit of the era created by the author. The study examines how archaic lexicon, historical terms, and realities are expressed in translation, as well as their artistic and communicative impact, and analyzes the linguistic and cultural difficulties that arise in the process of translating historical texts, as well as strategies for overcoming them. The results of the study show that adequacy in the translation of historical works requires not only semantic compatibility, but also stylistic and cultural compatibility. Keywords: historical works, translation, archaic lexicon, historical terms, national color, realities, adequate translation, artistic value. Kirish

qismi: Tarixiy badiiy matnlarni tarjima qilish tarjimashunoslikning murakkab va ko'p qatlamli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday asarlar faqat badiiy adabiyot namunasi bo'lib qolmay, balki o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhitini aks ettiruvchi muhim tarixiy manba sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tarixiy matnlarni tarjima qilish jarayoni oddiy til birliklarini boshqa tilga almashtirish bilan cheklanmaydi; u muallif tomonidan yaratilgan tarixiy atmosfera, milliy kolorit va madaniy kontekstni qayta ifodalashni ham talab qiladi. Tarixiy asarlarda uchraydigan arxaik leksika, tarixiy terminlar, realiyalar hamda davrga xos sintaktik shakllar matnning stilistik tizimini shakllantiruvchi muhim komponentlar hisoblanadi. Ushbu birliklar asarda tarixiylik effektini yaratib, o'quvchiga tasvirlangan davr muhitini tasavvur qilish imkonini beradi. Shu sababli ularni tarjima jarayonida haddan tashqari soddalashtirish yoki noto'g'ri talqin qilish asarning badiiy-estetik qiymatini pasaytirishi mumkin. Asosiy qismi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tarixiy asarlar tarjimasida davrga xos til vositalarining badiiy hamda kommunikativ funksiyalarini tahlil qilish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishda qo'llaniladigan tarjima strategiyalarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot davomida tarixiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash uchun adabiy tahliliy, lingvistik va komparativ tahlil usullaridan foydalanildi. Tanlangan tarixiy asarlar 594

Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 4-son _____ B seriya namunalarda uchraydigan arxaik leksika, tarixiy terminlar va madaniy realiyalar o'rganilib, ularning tarjimada qanday ifodalangani tahlil qilindi. Tarjima matnlari asl matnlar bilan qiyoslanib, ularning adekvatlik darajasi va badiiy ta'siri baholandi. Shuningdek, tarjimonlarning amaliy tajribasi hamda tarjimashunoslik sohasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, tarixiy matn tarjimasida qo'llaniladigan strategiyalar aniqlashtirildi. Adabiy-tahliliy usulida tanlangan tarixiy asarlar va ularning tarjimalari o'rganilib, arxaik so'zlar, tarixiy terminlar va davrga xos iboralar aniqlanadi. Har bir tarjima matni bilan asl matn taqqoslandi, mazmun, badiiy uslub va kommunikativ ta'sirning qanchalik saqlangani baholandi. Tadqiqot obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani va uning ingliz tiliga tarjimasini tanlandi. Asarda uchraydigan arxaik va tarixiy birliklar ajratib olindi: "bek", "mingboshi", "qozikalon", "xiroj", "oqsoqol", "paranji"⁹⁵ va boshqalar. Masalan, asl matnda quyidagi jumla uchraydi: "Mingboshi huzuriga kirishdan avval odob bilan ta'zim bajo keltirdi." Tarjimada bu jumla quyidagicha berilgan deb tasavvur qilamiz: "He respectfully bowed before entering the commander's presence."⁹⁶ Ushbu jumalarni tahlil qiladigan bo'lsak "mingboshi" so'zi tarixiy harbiy-ma'muriy lavozimni bildiradi. Uni oddiygina "commander" deb berish mazmunni umumiy jihatdan saqlaydi, ammo tarixiy milliy koloritni to'liq aks ettirmaydi. Arxaik muhitni berish uchun izohli tarjima (mingboshi – a local military chief) yoki transliteratsiya + izoh usuli qo'llanishi mumkin edi. "Ta'zim bajo keltirdi" iborasi tarjimada stilistik jihatdan neytrallashtirildi; asl matndagi sharqona odob va ijtimoiy ierarxiya ohangi biroz susaygan. Tarixiy leksika, sintaksis va frazeologik birliklar tarjima jarayonida qanday o'zgartirilganligi va o'rganilganligi lingvistik tahlilda o'z ifodasini topib, tarixiy realiyalarni zamonaviy o'quvchiga yetkazishda qo'llangan

jarayonlarni aniqlashtiriladi. Masalan, asl matndagi “xiroj” leksemasi tarjimada “tax” shaklida berilgan. Bu holatda umumiyashtirish jarayoni qo‘llanib, tarixiy darajasi pasaygan, ammo zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarlilik oshgan. Har ikki holatni ham saqlab qolish uchun quyidagi xiroj “(a historical land tax) - transliteratsiya +izoh usulidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Komparativ tahlil esa bir nechta tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan bir xil matn namunalarini taqqoslab, adekvatlik va badiiy ifodaning samaradorligi o‘rganilib, komparativ tahlil obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan bir jumla va uning ingliz tiliga qilingan ikki xil tarjimasi olindi. Masalan, “Uning qalbida g‘urur va ortuyg‘usi jo‘sh urar edi.” jumlasini birinchi tarjimada “His heart was filled with pride and honor” shaklida berilgan bo‘lsa, ikkinchi tarjimada esa “A strong sense of dignity and self-respect” 95 Qodiriy, A. O‘tgan kunlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1973. – 320 b. 96 Qodiriy, A. O‘tgan kunlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1973. – B.46. 595

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 4-son
B seriya surged within him”⁹⁷ shaklida qilingan. Bu ikkita bevosita tarjima solishtirilsa, 1-tarjimada leksik ekvivalentlik saqlangan, biroq “or” tushunchasining milliy-axloqiy konnotatsiyasi soddalashtirilgan. Ifoda qisqa va neytral 2-tarjimada semantik kengaytirish qo‘llangan; “self respect” va “surged” birliklari emotsional-ekspressiv ta‘sirni kuchaytirgan. Badiiylik yuqori, ammo mazmun qisman interpretativ xarakter kasb etgan. Demak, komparativ tahlil orqali tarjimalarning adekvatlik darajasi, milliy koloritni saqlash ko‘lami hamda badiiy ifoda samaradorligi o‘zaro qiyosiy asosda baholanadi. Tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha ilmiy maqolalar, qo‘llanmalar va risolalar manbalarni tarjima orqali o‘rganishda tahlilga olinib, bu orqali tarjima jarayonida duch keladigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlandi. Bu orqali tarjimonlar ishlatadigan strategiyalar aniqlanib, misol tariqasida: izoh qo‘shish, ekvivalent so‘z tanlash va badiiy adaptatsiya keltirildi. Natijada, maqolada tarixiy asar tarjimasi jarayonida uchraydigan lingvistik, badiiy va kommunikativ muammolarni tizimli tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu tahlil natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: Arxaik leksika va tarixiy terminlar – matnda tarixiylik va ijtimoiy ierarxiyani ifodalovchi asosiy vositalardir. Bevosita so‘zma-so‘z tarjima asarning badiiy qiymatini kamaytiradi. Tarjimonlar ularni zamonaviy o‘quvchiga moslash va funksional ekvivalent yoki izoh orqali yetkazishga majbur bo‘ladi. Shu bilan birga, ba‘zi terminlarning o‘ziga xos tarixi va davr ruhini aks ettiruvchi tarjima variantlarini tanlash zarur. Masalan, A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi amir, bek, sulton⁹⁸ kabi so‘zlar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda mazmunni yo‘qotadi. Shu sababli inglizcha tarjimada ruler / lord, ruscha tarjimada правитель kabi mos ekvivalentlar qo‘llanilgan. “Mehrobdan chayon”da esa qahramonlik, taxtga o‘tirish marosimi kabi davrga xos iboralar izoh orqali yetkazilgan: inglizcha tarjimada the coronation ceremony, ruscha tarjimada церемония восшествия на престол. Tarixiy realiyalar – joy nomlari, urf-odatlar, milliy bayramlar yoki voqealar tarjimada izoh, ekvivalent yoki adaptatsiya orqali beriladi. Bu usullar tarjimaning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Strategiya tanlash matnning janri va auditoriyasiga bog‘liq. Misol uchun, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida

ko'plab tarixiy joy nomlari mavjud: Samarqand, Xiva qal'asi, Buxoro amirligi⁹⁹kabi realiyalar tarjimada izoh qo'shish yoki mos nom bilan berilgan. Masalan: Inglizcha tarjimada Bukhara Emirate, ruschada esa Бухарский эмират shaklida berilgan. 97 Reese M., *Bygone Days: O'tkan Kunlar* // Free with Kindle Unlimited membership – 2020. – 46 p. 98 Qodiriy, A. *O'tgan kunlar*. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. – 320 b. 99 Qodirov, P. *Yulduzli tunlar*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 384 b. 596 _____ Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 4-son _____ B seriya Badiiy va kommunikativ ta'sir – davrga xos til vositalarining to'g'ri berilishi asarning estetik qiymatini saqlaydi va o'quvchi bilan matn o'rtasida samarali aloqani ta'minlaydi. Tarjimonlar ba'zan metafora, arxaism yoki frazeologik birliklarni moslashtirish orqali o'quvchida tarixiy muhitni his qilish imkonini yaratadi. Masalan: "Mehrobdan chayon"da daryo kabi oqdi¹⁰⁰ iborasi, so'zma-so'z tarjimada "flowed like a river" berilgan, ammo badiiy adaptatsiyada "poured forth swiftly like the river" shaklida o'quvchiga tabiiy va jonli ta'sir qiluvchi shaklga keltirilgan. "Yulduzli tunlar"da davrga xos frazeologik birliklar, masalan osmon yulduzlari bilan bezalgan tun inglizcha "the night adorned with stars", ruscha "ночь, украшенная звездами" shaklida tarjima qilingan. Tarjimon strategiyalari – maqolada uchta asosiy strategiya aniqlangan: a) Izoh orqali tushuntirish: Nowruz – Persian New Year festival celebrated in spring. b) Mos leksik ekvivalent tanlash: siyoh bilan yozilgan kitob → manuscript. c) Badiiy adaptatsiya – matnni o'quvchi uchun tabiiy va ravon qilish, lekin davr ruhini saqlash. : olamshumul voqea → a monumental event Tarixiy asarlarni tarjima qilish jarayoni murakkab va ko'p qirrali ijodiy faoliyat bo'lib, bunda nafaqat matn mazmuni, balki davrga xos stilistik va madaniy kontekst ham muhim ahamiyatga ega. Arxaik leksika, tarixiy terminlar va madaniy realiyalar tarjimada matnning badiiy-estetik yaxlitligini shakllantiruvchi asosiy vositalardir hamda o'quvchiga o'tmish davr muhitini his qilish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'zma-so'z tarjima ko'pincha matnning milliy koloritini va badiiy ifodasini susaytiradi. Shu sababli tarjimonlar arxaik leksika va realiyalarni izoh orqali tushuntirish, mos leksik ekvivalent tanlash, transliteratsiya yoki badiiy adaptatsiya kabi strategiyalar yordamida uzviy va tushunarli tarzda yetkazadilar. Komparativ tahlil natijalari tarjimonning lingvistik, stilistik va madaniy kompetensiyasining matnning milliy koloritini va badiiy qiymatini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Shu bilan birga, adekvat tarjima nafaqat semantik ekvivalentlikni, balki stilistik, pragmatik va madaniy moslikni ham ta'minlashi lozim. Umuman olganda, tarixiy asarlarni tarjima qilish — o'tmish davr ruhini boshqa til muhitida qayta yaratish va matnning badiiy-estetik xususiyatlarini saqlashga qaratilgan ijodiy jarayon bo'lib, tarjimonning yuqori malakasi natijani muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. 100 Qodiriy, A. *Mehrobdan chayon*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. – b. 192 597 _____ Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2026-yil 4-son _____ B seriya FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 1. Abdullaev, O. *Tarjima nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Fan, 2005. –240 b. 2. Jakobson R. *On linguistic aspects of translation* // *On Translation*. – Cambridge (MA): Harvard

University Press, 1959. – P. 232–239. 3. Каримов, Н. Тарихий матнларни таржима қилиш стратегиялари. – Ташкент: Изд во Национального университета Узбекистана, 2010. – 180 с. 4. Khabibullaeva M. E. Tarixiy romanlarni tarjima qilish jarayonida uslub muammosi // Sharqshunoslik. – 2021. – №4. – B. 60–69. 5. Khabibullaeva M. E. The role and importance of artistic translation in novels // Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Vol. 1, №6. – P. 1–6. 6. Махмудов, Ш. Адабий асар таржимаси ва маданий контекст. – Ташкент: Akademnashr, 2016. –160 с. 7. Reese M., Bygone Days: O'tkan Kunlar // Free with Kindle Unlimited membership – 2020. – 46 p. 8. Newmark, P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p. 9. Qodiriy, A. O'tgan kunlar. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. – 320 b. 10. Qodiriy, A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1992. – 256 b. 11. Qodirov, P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 384 b. 12. Qosimov, B. Davrga xos til vositalarining tarixiy matn tarjimasidagi roli // Filologiya fanlari. –2018. – № 4(12). – B. 45–56.